



**EKOLOGIYA HOLATINI YAXSHILASH BORASIDAGI HARAKATLAR**  
**МЕРЫ ПО УЛУЧШЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ**  
**ACTIONS TO IMPROVE THE ECOLOGICAL STATE**

**Obidov Nodir Zohid o`g`li**

*GulDu magistri, Guliston sh.*

*Obidovnodir7@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ekologik holatni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamoatchilik ekologik nazoratining ahamiyatiga bag‘ishlangan. Unda inson faoliyati natijasida biosferada yuz berayotgan o‘zgarishlar, tabiiy resurslarning kamayishi hamda ekologik muammolarning kuchayishi yoritilgan. Tadqiqotda aholi ekologik madaniyati, ekologik ong darajasi va jamoatchilikning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ishtiroki sotsiologik so‘rov natijalari asosida tahlil qilingan. Ekologik barqarorlikni ta‘minlashda mahalla, oila va ta‘lim tizimining roli muhim ekani asoslab berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda mavjud radioaktiv chiqindilar muammosi, ayniqsa Mayli-suv hududidagi uran chiqindilarining Farg‘ona vodiysi ekologiyasiga xavfi ko‘rsatib o‘tilgan. Transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilishda davlatlararo hamkorlik zarurligi ta‘kidlangan. Maqolada ekologik nazoratni kuchaytirish, aholi mas‘uliyatini oshirish hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologik holat , atrof-muhit muhofazasi, ekologik muammolar, jamoatchilik ekologik nazorati, ekologik madaniyat , ekologik ong , biosferaning o‘zgarishi, radioaktiv chiqindilar , mayli-suv muammosi , ekologik barqarorlik.

**Аннотация** Данная статья посвящена улучшению экологической ситуации, охране окружающей среды и важности общественного экологического контроля в Республике Узбекистан. В ней рассматриваются изменения, происходящие в биосфере в результате деятельности человека, истощение природных ресурсов и обострение экологических проблем. В исследовании анализируется экологическая культура населения, уровень экологической осведомленности и участие населения в охране окружающей среды на основе результатов социологического исследования. Обосновывается важная роль соседства, семьи и системы образования в обеспечении экологической стабильности. Также освещается проблема радиоактивных отходов в Центральной Азии, особенно угроза урановых отходов в Майлы-Сувской области для экологии Ферганской долины. Подчеркивается необходимость межгосударственного сотрудничества в решении трансграничных экологических проблем. В статье предлагаются практические рекомендации по усилению экологического контроля, повышению ответственности населения и обеспечению экологической безопасности.

**Ключевые слова:** экологическая ситуация, охрана окружающей среды,

экологические проблемы, общественный контроль за состоянием окружающей среды, экологическая культура, экологическое сознание, изменение биосферы, радиоактивные отходы, проблема пресной воды, экологическая устойчивость.

**Annotation.** This article is devoted to the improvement of the ecological situation, environmental protection and the importance of public environmental control in the Republic of Uzbekistan. It covers the changes taking place in the biosphere as a result of human activity, the depletion of natural resources and the intensification of environmental problems. The study analyzes the ecological culture of the population, the level of environmental awareness and the participation of the public in environmental protection based on the results of a sociological survey. It substantiates the important role of the neighborhood, family and education system in ensuring ecological stability. It also highlights the problem of radioactive waste in Central Asia, especially the threat of uranium waste in the Mayli-Suv region to the ecology of the Fergana Valley. The need for interstate cooperation in solving transboundary environmental problems is emphasized. The article puts forward practical proposals to strengthen environmental control, increase the responsibility of the population and ensure environmental safety.

**Keywords:** Ecological situation, environmental protection, ecological problems, public environmental control, ecological culture, ecological awareness, biosphere change, radioactive waste, freshwater problem, ecological sustainability.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Ekologik holatni yaxshilash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, atrof –muhitni muhofaza qilish va yaxshilash borasidagi harakatlar eng muammoli va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirda inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ta'siri yoki yomon munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar ko'payishiga olib ketdi va bu muammolar avj olib ketdi.

Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirma ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qisqarishi, shu bilan birga daraxt va butalarning kesib tashlanishi, yerlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiatga zarar yetkazildi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yog'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy o'zgarib borishiga va muvozanatining buzilishiga olib keldi[1].


Aslida ekologik muammolar doirasida jamoatchilik ekologik nazoratining ijtimoiy zarurati muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni huquqiy vositalar qatorida e'tirof etish ham mumkin. Bu diniy omil yoki vositalar bo'ladimi, qadriyatlar tizimiga asoslangan ma'naviy-axloqiy vositalar bo'ladimi, ahamiyatsiz. Umumiy maqsad va mohiyat mushtaraklik kasb etsa hamda natijadorlikka xizmat qilsa shuni o'zi kifoya qiladi.



Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish uchun jamoatchilik ekologik nazorati funksiyalari qatoriga mahallalarda atrof-muhit muhofazasining targ'ibot-tashviqot usullarini qo'shish, jamiyat a'zolarining ekologik madaniyatini yuksaltirish, aholining o'z yashab turgan hududida atrof tabiiy muhitga daxldorlik hissini kuchaytirish, mas'uliyatini oshirish kabi umumiy vazifalarni kiritish orqali ham natijadorlikni ta'minlash mumkin. Fuqarolik jamiyati mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri – bu jamiyatning o'zini-o'zi boshqarish va nazorat qilish tamoyiliga mos keladi. Shu sababli, ekologik nazoratning jamoatchilik tomonidan amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, tabiat va inson munosabatlarida ekologik muammolar eng avvalo, insonning o'ziga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, atrof-muhit muhofazasidan birinchi navbatda jamoatchilikning o'zi manfaatdor. Shuningdek, xalqaro hujjatlarda ham atrof-muhitni muhofaza qilish davlat va keng jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Atrof-muhit muhofazasi faqat qonunlarni qabul qilish bilan hal bo'lmaydi. Ijro mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilikni ekologik jarayonlarga keng jalb qilish zarur. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: Birinchidan, jamiyat a'zolariga atrof-muhit muhofazasi kelajakka daxldor masala ekanligini yetkazish, inson hayoti va salomatligidan qimmatliroq narsa yo'qligi, qolaversa jamiyatda mavjud resurslardan nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlod ham foydalanishi zarurligini turli usul va vositalar yordamida tushuntirish ehtiyoji bilan bog'liq; Ikkinchidan, fuqarolar va jamoatchilikning atrof-muhit muhofazasidagi faol ishtiroki natijadorlik nuqtai-nazaridan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bunda mahalliy vaziyatdan kelib chiqib, ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi qarorlarni tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilishdagi ishtirok fuqarolarning ekologik jarayonlarga e'tibori oshishini ta'minlaydi; Uchinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilishda mavjud muammolarga jamoatchilikni keng jalb etish, jamiyat a'zolarining ekologik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli harakat ekanligini anglashlariga yordam beradi va shu bilan birga fuqarolar faolligi ta'minlanib, davlat organlarining fuqarolar oldidagi mas'uliyatini oshiradi. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, huquqiy normalar qatorida insonning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatish, psixologik ta'sir vositalarini qo'llash ham jamoatchilik ekologik nazoratining aniq mexanizmi bo'lishi mumkin. A. Axmedovning quyidagi qarashlari buni tasdiqlaydi: "Umuman ekologik faoliyat, xususan, ekologik nazorat jamiyatning ehtiyojidir. Chunki, unda insonning ekologik faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va malakalari, qobiliyat va iste'dodi, maqsad va manfaatlari reallashib, orzu-istaklari va ideallari amalda ro'yobga chiqadi, bu esa ekologik nazorat tizimining funksional namoyon bo'lishidir. Ma'lumki, ekologik ehtiyojlarning qondirilishi kishilarda tabiatni muhofaza qilishdan: ma'naviy qanoatlanish, estetik zavqlanish emotsional-ruhiy holatini hosil qilsa, amalga oshmagan ehtiyojlar, manfaatlar kishilarda ekologik qulay yashash sharoitini mavjud siyosiy tizimdan norozilik, passivlik, azoblanish, tushkunlik, depressiya kabi salbiy emotsiyalarini keltirib chiqaradi"<sup>9</sup> .

Ko‘rinib turibdiki, jamiyatga ta‘sir o‘tkazish o‘sha ta‘sirning ruhiy-emotsional, psixologik, estetik mukammalligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu borada ekologik barqarorlikni ta‘minlashga javobgar subyektlarning jamiyatshunos, ruhshunos olimlar bilan o‘zaro hamkorligi ijobiy natijalarni taqdim etishi mumkin. Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda eng muhim omillardan biri – aholining o‘zi yashab turgan atrof-muhit holatiga nisbatan ekologik baho bera olishi hisoblanadi.

Dissertatsiya doirasida Respublikamizning besh hududi (**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Namangan, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahri**)da 1200 nafar respondent ishtirokida “Aholining ekologik madaniyati va jamoatchilik nazorati” bo‘yicha sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi. Olingan natijalarga ko‘ra, har beshinchi respondent (21%) u yoki bu darajada mahallasidagi ekologik vaziyatni yaxshi deya baholagan. Respondentlarning qariyb o‘ttiz foizi (27%) mazkur holatni o‘rta darajada deb o‘ylaydi. Qolgan javob beruvchilar atrof-muhitdagi vaziyatni turli darajada salbiy ekanligini aytib o‘tishgan. Jumladan, har to‘rtinchi holatda fuqarolar ekologik vaziyat yomon bo‘lsada, chidab yashab kelayotganini, har beshinchi holatda vaziyat o‘ta og‘ir ekanligini aytib o‘tishgan. Ekologik vaziyatni og‘ir deya baholagan respondentlarning aksariyati mamlakatimizning haqiqatan ham tabiiy sharoiti yomon bo‘lgan muammoli hududlarida istiqomat qilishadi (1-rasm).



**1-rasm. Respondentlarning o‘z mahallalaridagi ekologik holat to‘g‘risidagi fikrlari (foizda)**

Tadqiqotga doir sotsiologik so‘rovnomada respondentlarga ularning ekologik madaniyati va tabiatni muhofaza qilish jarayonida bevosita ishtirok etishiga oid savol bilan murojaat qilinganda, ularning aksariyat qismining atrofda sodir bo‘layotgan voqealarga qay darajada e‘tiborsizligi, ekologik nazorat jarayoniga ko‘ngilli sifatida ishtirok etishni istamasligi aniqlandi. Respondentlarning yarmidan ko‘pi shu vaqtga qadar atrofida tabiat xavfsizligiga dahl qilingan holatlarda bu borada mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilmaganligini qayd etgan. Har to‘rtinchi (26%) respondentgina sodir bo‘layotgan ekologiya bilan bog‘liq salbiy holatlar yuzasidan tegishli organlarga xabar bergan. 20 foizga yaqin so‘rov ishtirokchilari mazkur savolga javob bermagan (2-rasm).



**2-rasm. Respondentlarning salbiy ekologik holatlar bo'yicha mutasaddi organlarga murojaat qilish holati (foizda)**

O'z navbatida, mahalla instituti doirasida bugungi kunda ekologik faoliyat bilan ko'plab jamoatchilik vakillari, davlat organlari shug'ullansada, aholining bundan xabardorlik darajasi yuqori emasligini qayd etish lozim. Misol uchun, dissertatsiya doirasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning deyarli yarmi (45 foizi) o'z mahallasida ekologik nazoratni amalga oshirish, atrof-muhit, tabiatni asrash kabi vazifalar bilan aynan kim shug'ullanishi haqida ma'lumotga ega emasligini ma'lum qilgan. Qolgan 40 foizga yaqin ishtirokchilar esa mazkur vazifani asosan mahallaning ko'zga ko'ringan vakillari (ko'p holatda yoshi kattalar) amalga oshirayotganini ta'kidlashgan. Ayrim holatlarda mahalla faollari (14%), mahalla raisi (11%), ichki ishlar xodimlari va hokimiyat vakillari (2%) ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida samarali faoliyat olib borayotgani qayd etildi (3-rasm).



**3-rasm. Respondentlarning tabiatni asrash va ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kim shug'ullanishi to'g'risidagi fikrlari (foizda)**

Ta'kidlash lozimki, jamoatchilik ekologik nazorati insonning ogoh bo'lishi va bo'layotgan vaziyat yuzasidan tegishli organlarga xabar berishi bilan birgalikda vaziyat yuzasidan tartibni buzgan yoki zarar yetkazgan insonga o'zining fikrini aytish, dashnom berishida ham namoyon bo'ladi. Dissertatsiya doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, har uchinchi respondent bunday holatga e'tibor bermasligini (30%), 27 foizi mazkur vaziyatda nima qilishini aniq ayta olmasligini ta'kidladi. Shu bilan birgalikda ayrim insonlar ekologiyaga zarar yetkazuvchi shaxslarni ko'rganda ularga tanbeh berishi (25%), noto'g'ri ekanligini tushuntirishi (10%) aniqlandi. 12 foiz so'raluvchi esa bevosita tartibni buzgan inson bilan muloqotga kirishdan ko'ra, mutasaddi tashkilotlarga xabar berishni afzal ko'radi (4-rasm). Olingan natijalar mamlakatimizda ekologik vaziyatni saqlab qolishda shakllanayotgan jamoatchilik nazorati hali u qadar kuchli emasligini namoyon qildi.



**4-rasm. Respondentlarning ekologik tartib buzilganda o'zlarini qanday tutishlari bo'yicha savolga munosabati (foizda)**

o'tkazilgan ekspert so'rov tadqiqotining ekologik holat kelajagi bo'yicha savolga bergan javoblariga e'tibor qaratish lozim. 30 nafar soha mutaxassisi ishtirok etgan tadqiqot doirasida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ularning 43 foizi kelajakdagi ekologik vaziyat borasidagi fikrlari ko'tarinki kayfiyatda bo'lib, ular insoniyat tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirlarning oldini olishiga ishonishadi. Qolganlari esa tabiat va jamiyat turli darajada talofotlarga uchrashini bashorat qilishmoqda. Shunga ko'ra, hattoki 5 foizi tabiat inqirozi tufayli insoniyat qirilib ketish xavfi ostida qolishi mumkinligini aytib o'tishgan. Salbiy oqibatlar qatorida aholi salomatligining keskin kamayishi (12%), tabiat boyliklarining tiklanmaydigan darajada kamayib ketishi (14%)ni ta'kidlab o'tishgan. Jamoatchilik ekologik nazoratini samarali tashkil etish birinchi navbatda aholining ekologik ongini oshirishni shartlab qo'yadi. Ekologik ong umumiy ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, u ekologiyaga oid bilim va ko'nikmalarning o'zaro uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi. Shaxsning ekologiyaga oid bilimlari ortib borishi birinchi navbatda uning ongida o'zgarishlar ro'y berishini ta'minlaydi va o'z navbatida

ekologik ongning rivoji boshqa elementlarning shakllanishini ta'minlaydi. Fikrimizcha, fuqarolarda ekologik ongni shakllantirish asosan oila, mahalla va ta'lim tizimi zimmasiga tushadi. Ma'lumki, oila farzand tarbiyasi uchun ilk tarbiya o'chog'i hisoblanib, atrof-muhitga munosabat oilaviy qadriyatlar fonida shakllanib uni to'ldirish ko'proq ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi maqsad sari qo'yiladigan qadamlar ketma-ketligini belgilab beradi[2].

O'zbekistonda ekologik muammo Orol dengizida balki Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlarning dolzarb muammolaridan biri bu "Radioaktiv chiqindi"lar muammosidir. Bu radioaktiv moddalarni o'z ichiga olgan xavfli chiqindilardir. Radioaktiv chiqindilar yadroviy tibbiyot, yadroviy tadqiqotlar, yadroviy energiya ishlab chiqarish, noyob tuproq elementlarini qazib olish va yadro qurollarini qayta ishlash kabi ko'plab faoliyat natijasida paydo bo'ladi. Radioaktiv chiqindilarni saqlash va ko'mish inson salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida davlat organlari tomonidan tartibga solinadi. Radioaktiv chiqindilarni boshqarish muammosi sanoat energiyasidan foydalanishning eng katta muammolaridan biridir. Atom energetikasining boshqa energiya manbalaridan asosiy farqlovchi xususiyati yadroni energiyaga aylanishining deyarli barcha bosqichlarida hosil bo'lgan radioaktiv chiqindilar katta hajmda bo'lishidir. Mana Shunday radioaktiv chiqindilarni saqlash omborlari Markaziy Osiyoda ko'plab joylashgan. Shulardan biri Qirg'iziston hududida joylashgan bo'lib hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlariga xususan O'zbekistonning sharqiy qismi Farg'ona vodiysiga katta xavf solib turibdi. Farg'ona vodiysidagi daryolar va qishloq xo'jaligi yerlaridan oqib o'tadigan radioaktiv chiqindilarni tozalash bo'yicha birgalikda qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda ishlash kerak, bu mintaqada yashovchi odamlarning salomatligi va atrof-muhit uchun juda ham zarurdir.

1946 yildan 1968 yilgacha Mayli-suvdagi g'arbiy kon-kimyo kombinatida 9.000 tonnadan ortiq uran rudasi qazib olindi va qayta ishlandi va 2 million kubometrda ortiq chiqindi hosil qilindi, ular o'sha davrda Mayli-suv daryosi bo'ylab tog' yonbag'irlarida 23 ta obyektga umumiy maydoni 50 gektar yerga ko'milgan. 1958 yil aprel oyida 7-sonli radioaktiv chiqindi omborida yomg'ir va yuqori seysmik faollik natijasida Mayli-suv allyuvial to'g'on qulab tushdi, natijada Mayli-suv daryosiga 400000 kubometrda ortiq radioaktiv chiqindilar tushdi va ular keyinchalik 30-40 km pastroqqa O'zbekistonda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlariga tarqaldi. Ushbu falokatning oqibatlarini bugungi kungacha davom etmoqda. So'nggi yillarda ham daryo va tog' yonbag'irlari bo'ylab uran chiqindi omborlarini vayrona qiladigan, qo'shni hududlarni ifloslanishiga sabab bo'ladigan zilzilalar, ko'chkilar va kuchli yomg'irlar tez-tez sodir bo'lib turibdi[3].

Hozirgi kunda esa Sirdaryoning O'zbekistonga Qirg'iziston orqali oqib o'tadigan asosiy oqimi bo'lgan Mayli-suv daryosini ifloslantirib, aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysiga radioaktiv chiqindilarni tarqatmoqda. Bir qator xalqaro tashkilotlar Mayli-suvdagi falokatlarini oldini olish uchun ish olib bordilar. Jahon banki uran chiqindilarini

tozalash uchun 11 million dollardan ortiq mablag' ajratdi. 2015-yilda Yevropa komissiyasi Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistondagi eng xavfli hududlarni qayta tiklash bo'yicha tashabbus bilan chiqdi. Biroq, ifloslanish davom etmoqda va Markaziy Osiyo mamlakatlari Farg'ona vodiysida yuzaga keladigan ekologik ofatlarning oldini olish, Shuningdek, iqtisodiy zararlarni kamaytirish va siyosiy masalalarni hal qilish uchun strategik hamkorlikni yanada takomillashtirishlari kerak. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik: transchegaraviy daryolarning ifloslanish muammosini hal qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki bu muammolar mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan bog'liq. Masalan, Farg'ona vodiysidagi chiqindi omborlarini qayta tiklash va reabilitatsiya qilish uchun iqtisodiy hamkorlik zarur. Jahon banki va Yevropa Ittifoqi qo'llabquvvatlashiga qaramay, Qirg'iziston qo'shimcha yordamga muhtoj. Rossiya Federatsiyasi 2012-yildan 2017-yilgacha Qirg'izistonda uran qoldiqlarini tadqiq qilish uchun 1 milliard rubl (14 million AQSh dollari) sarfladi. Bugungi kunda shunday katta ekologik muammoni chegaramizdan chetdagi muammo deb e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Demak bunday muammolarni hal qilish uchun mintaqadagi barcha davlatlar birdek harakat qilmog'i lozim. Men quyidagilarni tavsiya qilaman: Mayli-suv hududida joylashgan radioaktiv chiqindilarni rekultivatsiya (xavfsiz hududga ko'chirish) ni tavsiya qilaman. Bu yo'l bilan sodir bo'lish mumkin bo'lgan xavfni batamom bartaraf etgan bo'lamiz. Mayli-suv daryosi suvini yo'lga suniy to'g'on qurish hamda to'plangan suvdan radioaktiv chiqindilardan tozalash ishlarini olib borilishi lozim[4].

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoldarov Xatamjon Mo'ydinovich O'zbekiston hududidagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari  
<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-hududidagi-ekologik-muammolar-va-ularni-bartaraf-etish-masalalari/viewer>
2. **Ashurov Abror Uralovich** O'zbekiston mahallalarida jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari (ijtimoiy-falsafiy tahlil) Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2024 bet 14-17.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/markaziy-osiyo-mintaqasidagi-radioaktiv-chiqindilar-bilan-bog-liq-ekologik-muammolar-va-ularning-yechimlari/viewer>
4. O'zbekiston Respublikasining 837-son XII-son 06.05.1993 yildagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni <https://suvmap.uz/storage/open-data/November2023/CdGnNELm5WJ1sduMPI8m.pdf>